

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI MATEMATIKA O'QITISH JARAYONIDA FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17809126>

Fayzullayeva Sayyora Xudoyberdiyevna

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti. Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti*

Ismoilov Bobur Toxirovich

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim
nazariyasi kafedrası mudiri, dotsent, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

Annotatsiya

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishida matematika o'qitish metodikasi dasturlariga mantiqiy masalalarni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha bilimlarni kiritish va shu asosda boshlang'ich sinflar uchun yozilgan darslik va qo'llanmalarga alohida bob qilib nazariy va amaliy ma'lumotlar berish kerak, o'quvchilarga ongli bilim, malaka, ko'nikma o'quvchilarga mantiqiy masala, mantiqiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish asosida amalga oshiriladi deb yoritib berilgan.

Kalit so'zlar

matematika, boshlang'ich ta'lim, ta'lim-tarbiya, mantiqiy fikr, mantiqiy masala, didaktik o'yin, ta'lim metodi, interfaol metodlar, tafakkur, kichik guruhlarda ishlash, metod, o'quvchi, o'qituvchi, hamkorlik.

Аннотация

В начальном образовании необходимо включать знания о формировании и развитии логических задач в программы методики преподавания математики, и на этой основе в учебниках и пособиях для начальных классов теоретические и практические сведения следует выделять в качестве отдельной главы. Подчеркивается, что осознанные знания, умения и навыки учащихся достигаются через формирование и развитие логических задач и логического мышления.

Ключевые слова

математика, начальное образование, образование, логическое мышление, логическая задача, дидактическая игра, образовательный метод, интерактивные методы, мышление, работа в малых группах, метод, ученик, учитель, сотрудничество.

Abstract

In primary education, it is essential to incorporate knowledge about the formation and development of logical problems into mathematics teaching methods. Therefore, textbooks and manuals for primary grades should include separate chapters on theoretical and practical information. It is emphasized that students' conscious knowledge, skills, and abilities are achieved through the formation and development of logical problems and logical thinking.

Key words

mathematics, primary education, education, logical thinking, logical task, didactic game, educational method, interactive methods, thinking, work in small groups, method, student, teacher, cooperation.

Kirish (Adabiyotlar sharhi). Hozirgi kunda matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarni zeriktirib qo'ymaydigan, ijodiy fikrlash, mustaqil ishlashga yo'naltirigan har xil masalalardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodiy qobiliyatning rivojlanishida mantiqiy masalalar alohida o'rin tutadi. Masalalar yechish jarayonida har doim taqqoslash, analiz va sintez, abstraktlash, aniqlashtirish, umumlashtirish induktiv va deduktiv xarakterdagi xulosa chiqarish va shu kabi mantiqiy tafakkur usullaridan foydalaniladi. Har doim tafakkurning mazkur mantiqiy usullari arifmetik masalani yechish yo'llarini topish vositasi sifatida ishlatiladi, o'quvchilar ularni amalda o'zlari tushunadigan shaklda o'zlashtiradilar, ularni qo'llashni o'rganadilar. Biz mantiqiy fikrlash, mantiq kabi so'zlarni ko'p gapiramiz va tez-tez eshitib qolamiz. Mantiqiy mashqlar bolalarning narsa va atrof-muhit haqidagi bilimlarini tartibga soladi va ularga to'g'ri fikrlash usullarini o'rgatadi.

Turdikulova M.N. [5] Qo'shimcha mashg'ulotlarda odatdagi misol va masalalardan tashqari qiziqarli va mantiqiy masalalardan foydalanilsa, o'quvchining fikrlash doirasi yanada kengayib, matematik bilimlarini amaliyotda qo'llash ko'nikmasi hosil bo'lib boradi. Mantiqqa asoslangan xulosalar chiqarish, matematikaning qiziqarli yo'nalishini belgilaydi.

G'afforova T. [7] Mantiqiy masalar ustida ishlash asosida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari shakllanib boradi. Mantiqiy fikrlashni rivojlanishi asosida bolada mustaqil fikr, mulohazalar paydo bo'ladi. Fikrlash yangi g'oyalar va ular ustida ishlash imkoniyatlarini yaratadi. Matematika fanidan o'quvchilarning qiziqishini oshirish uchun qo'shimcha mashg'ulotlarning o'rni katta.

Materiallar va uslublar. Matematik masalalar yechish matematika o'qitishning muhim tarkibiy qismidir. Masalalar yechmasdan matematikani

o'zlashtirishni tasavvur ham etib bo'lmaydi. Matematikada masalalar yechishning nazariyasini amaliyotga tadbiiq qilishning muhim yo'lidir. Masalalar echishning boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan u yoki bu nazariy materiallarni o'zlashtirish jarayonida muhim rolni va o'quvchilarni fikrlash qobiliyatlarini o'stiradi muhim rol o'ynaydi. Masalalar amaliy ishlar sistemasi asosida tuziladi. Bu degan so'z har bir yangi tushunchani tarkib toptirish har doim bu tushuncha ahamiyatini tushuntirishga yordam beradigan uning qo'llanishini talab qiladigan u yoki bu masalani yechish bilan amalga oshadi.

Natijalar va munozara. Arifmetik amallarning mazmunini amallar orasidagi bog'lanishlarni amal komponentlari bilan natijalar orasidagi ochib berishda, har xil miqdorlar orasidagi bog'lanishlar bilan tanishishda mos sodda masalalardan foydalaniladi. Sodda masalalar o'quvchilarda murakkab masalalarni yechish uchun zarur, bo'ladigan bilimlar malakalar va ko'nikmalarni tarkib toptirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Masalalar bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning foydali vositasi bo'lib odatda o'z ichiga ayrim bilimlarni oladi. Bu bilimlarni qidirish masala yechuvchidan analiz va sintezga mustaqil murojaat qilish faktlarni taqqoslash, umumlashtirish va hokazolarni talab qiladi. Bilishning bu usullarini o'rgatish matematika o'qitishning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi. Masalalarni yechishda predmetga bo'lgan qiziqish rivojlanadi, umuman mustaqillik erkinlik, talabchanlik, mehnatsevarlik, maqsadga intilishlik rivojlanadi. O'quvchilarga tarbiya berishda ham hayotiy masalalar fikr doiralarni kengaytirishga yordam beradi. Masalalar ustida ishla ekan sistemali ravishda va rejali asosda o'quvchilarning xususiy malakalarini takomillashtirishga olib keladi.

Masala ustida ishlash uning mazmunini o'zlashtirishdan boshlanadi. Masala mazmunini yaxshi tushunish uchun o'quvchilarni har biriga uning matnini eshittiribgina qolmay, balki uni mustaqil o'qib chiqishlari ham kerak. Agar masala sharti bosh qotiradigan bo'lsa o'quvchilarga masala mazmunini mustaqil o'yiab ko'rishlari uchun bir-uch minut vaqt berish maqsadiga muvofiqdir. Masala matni ustida ishlaganda o'quvchilarning diqqat e'tiborini avvalo masala matnidagi har bir so'z va har bir son mazmuniga qaratish lozim, masalada tasvirlanayotgan manzarani joyni tasavvur qilishiga yordam berish kerak, masala matn ustida og'zaki ishlagandan keyin masala mazmuni matematik atamalar tiliga o'tkazish va uning matematik tuzilishini qisqa yozuv (sxema, chizma, jadval) shakllarida ifodalash kerak. O'quvchilarda ikkinchi sinfda birinchi sinfdagi kabi yangi masalalar bilan tanishtirishda yoki murakkab masalarni yechishda to'la pridmet ko'rsatmalikda sekin -asta to'liq bo'lmagan ko'rsatmalikka o'tiladi. Masala sharti murakkab berilganlar orasidagi bog'lanishlarni tahlil qilish qiyin bo'lganda shunigdek yangi tipdagi masalalarni yechishda qisqa yozishdan foydalanish

maqsadga muvofiqdir. Sodda masalani yechishda amal tanlash masalasiga to'xtalib o'tamiz.

Bu malaka 1-sinfda shakllantirib boriladi, o'quvchilarning 2-yilda shakllantirish yana davom ettiriladi. Sodda masalalarni arifmetik, arifmetik ham algebrik usul bilan echish mumkin. Sodda masala arifmetik usul bilan yechilganda ifoda tuzib uning qiymati topiladi. Masalan: Ahmad bir kuni kitobning 15 betini o'qidi, 2-kuni esa birinchi kuniga qaraganda ikki marta ko'p o'qidi. Ahmad ikkinchi kuni kitobning necha betini o'qidi. Masalani echilishini bunday yozish mumkin: $15 - 2 = 30$ (bet). Javob: Ahmad ikkinchi kuni 30 bet kitob o'qigan. Masala echimini tekshirish to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlashdan iboratdir. Boshlang'ich sinflarda tekshirishning quyidagi usullaridan foydalaniladi. Masalalarning shartlari bilan topilgan javoblar orasida moslik o'rnatish. Bu usul bilan o'quvchilarni birinchi sinfdan boshlab tanishtiriladi, shu usul 2-sinfda davom ettiriladi. Masalan: Vali 12 ta baliq Ahmad esa unga qaraganda 2 marta kam baliq tutdi: ikkalasi birgalikda qancha baliq tutishgan. Echish: $12 + 12 : 2 = 12 + 6 = 18$ ta (baliq). Tekshirish: masalaning shartiga ko'ra Vali Ahmadga qaraganda 2 marta ko'p baliq tutgan. $18 - 12 = 6$ ta 2. $12 : 6 = 2$ ta. Masalani o'zi bilan va uning tarkibiy elementlar bilan bolalarni tanishtirish o'qitish jarayonidagi navbatdagi eng muhim va juda javobgarlik bosqichidir. Bu ishni predmet ko'rsatmalikdan foydalanib boshlash kerak. O'qituvchi son ma'lumotlarni va amallarni ko'rsatadi ammo natijani ko'rsatmaydi, o'quvchilardan yashirishi juda muhimdir. Demak, bolalarga mavzu mazmuni to'g'risida gapiriladi, hamda berilgan sonlar tasvirlangan rasmlar ko'rsatiladi. Rasm bo'yicha birinchi masalani o'qituvchining o'zi tuzadi. U bolalarni rasmlarni ko'rib chiqishiga, berilgan sonlarni hamda miqdoriy munosabatlarning o'zgarishiga olib kelgan hayotiy harakatlarni ajratib olishga o'rgatadi.

Xulosa va tavsiyalar. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishida matematika o'qitish metodikasi dasturlariga mantiqiy masalalarni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha bilimlarni kiritish va shu asosda boshlang'ich sinflar uchun yozilgan darslik va qo'llanmalarga alohida bob qilib nazariy va amaliy ma'lumotlar berish kerak. O'quvchilarga ongli bilim, malaka, ko'nikma o'quvchilarga mantiqiy masala, mantiqiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish asosida amalga oshiriladi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon , demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". Toshkent "O'zbekiston" 2016-yil.

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: “O'zbekiston”. - 2017.– 102b.

3. Abdullayeva B.S., Sadikova A.V., Xamedova N.A., Muxitdinova M.N., Toshpulatova M.I. Boshlang'ich matematika kursinazariyasi. (Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish bakalavriyat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik). Tafakkur bo'stoni. Toshkent-2018, 496 bet.

4. Turdikulova M.N. Boshlang'ich sinflar uchun matematikadan didaktik materiallar-(metodik qo'llanma) Toshkent-2016 “Tafakkur” nashriyoti.

5. Tolipov O'.Q., Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. Monografiya. “Fan”. Toshkent - 2015.

7. G'afforova T. “Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”. “Tafakkur” nashriyoti. Toshkent - 2012.